

«MING DARDGA DAVO - PIYOZ XALQ TABOBATIDA»

Xolboyeva Madina O'ral Qizi

Toshkent Farmatsevtika Instituti, Magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20961921>

Annotatsiya: Hozirgi kunda kimyoviy va sintetik moddalardan kasalliklarga qarshi dori vositalari olish takomillashgan. Lekin bu qimmat usul va odam organizmiga ma'lum darajada zararli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekistonda o'stirilayotgan shifobaxsh o'simliklarni izlab topish, ularni biologik faol moddasi eng yuqori bo'lgan organlarini o'rganish va xalq tabobatida qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy tabobatda piyozdan ateroskleroz, gipertoniya kasalligi, asteniya, gipovitaminozlar, qandli diabet, mijoz sustligi, prostatit, prostata bezi adenomasi, yuqori nafas yo'llari katarlari, me'da-ichak yo'li shishining sustligi, yurak va buyrak yetishmovchiligiga aloqador shishlarga davo qilish uchun foydalaniladi. Piyozdan spirtida tayyorlangan ekstrakt ichak atoniyasi, aterosklerozda, yurak shishini kuvvatlash uchun ishlatiladi. Piyozdan olinadigan boshqa bir preparat — alligitserin trixomonada kolpitlariga davo qilish uchun tavsiya etiladi. Bolgar olimlarining ma'lumotlariga qaraganda, har kuni kechkurun kichikroq bir bosh piyoz yeb yotilsa, prostata bezi gipertrofiyasiga yaxshi davo bo'ladi.

Kalit so'zlar: Piyoz (*Allium*), fitonsid, alligitserin, diareya, Liliaceae

Piyoz barglari shaklan o'zgargan bo'lib, ichi bo'sh naycha holiga kirgan buladi. Gul chiqaradigan poyasining o'rtasi qavariq, to'pguli sharsimon, gullari mayda, yashilroq oq rangda. Mevasi — uch uyali ko'sakcha, ichida noto'gri shaklli sora urug'lari bo'ladi. Piyozning navlari ko'p. Bular piyoz boshining mazasi, rangi, shakli jihatidan har xil bo'ladi. Chunonchi, oq, sariq, pushti, qizg'ish-binafsharang tusli, dumaloq, yassi, noksimon shaklli piyoz navlari bor.

Geografik tarqalishi. Piyoz butun dunyoga keng tarqalgan o'simlikdir. Vatani Xitoy, O'rta Osiyo deb hisoblanadi. Piyozning yovvoyi turlari sahrolar, dashtlar, o'tloqlar va o'rmonlarda ko'p o'sadi.

Ishlatiladigan organlari: piyoz boshi.

Kimyoviy tarkibi: Piyozda mikroblar, sodda jonivorlar va zamburug'larga halokatli ta'sir o'tkazadigan uchuvchan fitonsid moddalar bor. Ekiladigan piyoz navlarida har xil miqdorda qand moddalari bilan azotli moddalar bo'ladi. Piyozning mazasi va sarimsoqsimon hidi uning hamma to'qimalarida bo'ladigan sarimsoq moyiga bog'liqdir, bu moyning asosiy qismi - disulfidida oltingugurt ko'p bo'ladi. Piyozning o'tkir hidi undagi efir moylariga ham bog'liq.

Ta'siri va ishlatilishi: Xalq tabobatida piyoz terlatadigan, siydik haydaydigan vosita tariqasida manzur bo'lgan. Yangi olingan piyoz suvi gripp, angina, ichburug', surunkali kolit, sil, bronxial astma kasalliklarida qo'llaniladi va u mijoz sustligiga ham naf beradi. Ustiga shakar sepib, bug'da pishirilgan piyoz jigar va o't yo'llari kasalliklarida davo bo'ladi, piyozni pishirib, chipqonga qo'yilsa, uning yorilishini tezlashtiradi. O'rta Osiyo xalq tabobatida piyoz urug'lari qaynatmasini buyrak-tosh kasalligida qo'llaniladi, sutga aralashtirib (1:1 nisbatda) ko'z quvvatini oshirish uchun ichiladi, piyoz suvini gripp mahalida burunga tomiziladi, sepkil, husnbuzarlarni yo'qotish uchun ishlatiladi.

Ibn Sino ma'lumotlariga qaraganda, piyoz me'dani mustahkamlaydi, ishtahani ochib, sariq kasalligi, mijoz sustligida yordam beradi, asal bilan aralashtirib iste'mol qilinsa, anginaga davo bo'ladi. Dumba yog'i bilan iste'mol qilinganida o'pkani yumshatib, jigarni tozalaydi.

Yong'oq mag'zi orasida bo'ladigan po'choq to'sig'i va kuygan non po'sti og'izdan kelib turadigan piyoz hidini yaxshi oladi.

Xulosa qilib aytganda, piyoz o'simligining piyoz boshi antimikrob xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Ichak mikroflorasiga ta'siri ko'rib chiqildi va qon aylanish sistemasiga ijobiy ta'siri o'rganildi. Farmatsevtika sanoatida piyoz o'simligidan kapsula, quyuq ekstrakt tayyorlashda ishlatiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. H. X. Xolmatov, o'. A. Ahmedov, n. A. Musayeva Farmakognoziya va botanika asoslari T-2017
2. Liboris Nikolayevich "Xalq tibbiyoti". Yangi asr avlodi. Toshkent 2008
3. M.N. Maxsumov, X.X. Xolmatov "Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan birga". Toshkent., 2003y.